

Yurist

-Nima bo'ldi - deb soradi supadan tusharkan

- ishing bo'lmasin ketayver- dedi jahl bilan Farrux

Undagi bu holat birinchi bor emas. Sal jahli chiqdi deguncha hamma joyni ag'dar to'ntar qiladi. Hozir ham alamini ichiga yutib jimgina ko'cha tomonga yuzlandi.

- Feruz o'g'lim nima bo'ldi,- ostonadan bo'g'iq ovoz keldi.

- ona kiring o'zi shamollagansiz, nima qilasiz chiqib,- Feruz qo'li bilan imo qilib onasini tinchlatdi. Nimadandir ko'ngli hovliqib chiqqan ona Farruxni bezovta ko'rib tinch turolmas edi. O'g'illari gurunglashib ko'cha tomon ketishdi. Ona bechora kimni ko'nglini olishni bilmaydi. Sal narsaga gap ko'tarolmaydigan yoshlarga gap uqtirsang og'ziga xo'jayinlik qilolmaydigan , oyog'i bilan emas tili bilan yuradiganlar ko'ngilni xira qilishadi. Bir qarasang bu ishing xato , bir qarasang yana boshqasi. Kimdir seni ko'rolmayotganidan noliyman desang ko'rolmaydigan darajadagi hech narsang ham yo'q aslida . Unda bu odamlar shu to'rt kunlik dunyoda nima istashadi.

Hammasi Sohib akani uyida bo'lib o'tgan ziyofatda boshlandi. Sohib akaning qizi shartnoma asosida tibbiyot akademiyasi naq Toshkentning o'ziga o'qishga kirganmish.

- U yerlarda katta soqqang bo'lmasa,- gap boshladi Sohib aka,- qiyin , uka juda qiyin o'qishga kirish.

U qo'lidagi piyolani bo'shatib , aftini burishtirib gazak oldida xonani to'ldirib turgan odamlarga qarata

-lekin meni qizim kirdi,- yuzidan tabbassum porladi shu payt

- ha u otasining qizida, lekin ishongandim. O'ziyam falon pul berib har oy tayyorlanishini o'zi bo'lmaydi. Mehnat qildik og'aynichalish mehnat...

U bu gapini boshini xam qilib choy suzib berayotgan Farruxga qarata aytdi

-lekin odam havas qilsa odam bo'ladi. Hasadgo'y yer bo'ladi,.. yer

Atrofdan odamlarning " Sohibjon qo'ying endi " degan tovushlari kelardi. Negadir u bu gaplarni aynan Farrux tomon aytayotgan edi. O'qishga kira olmagach o'z-o'zini yomon ko'rib yurgan Farrux bugun qo'shninikiga chiqmasa aniq har xil gap bo'lishini bilib indamay chiqdi. Boshini xam qilib

- o'qish nima bo'ldi deguvchilarga

-bo'lmadi - deb qo'ydi. Aslida o'qishga kirolmagach bu tahlid yog'diriladigan savollarga javob berish ne chog'lik qiyinligi, qiyin bo'lganda ham ko'tarib bo'lmas darajada yurakka og'riq berishini bir yil bo'lsada chinakamiga o'qishga tayyorlanib lekin kira olmagan abiturentlar bilishadi.

Farrux ko'p o'ylamadi qo'shni qiz har qalay undan uddaburonroq chiqib o'qishga kirgan ekan bu yig'ilishga chiqmaslik uyat bo'lar deb o'yladi. U hozir o'z qarshisida turib unga nafrat ila qarayotgan ko'zlarni ko'rmayotgan edi. Nimayam bo'ldiki, choy suzib yonidagi qo'shinishiga uzatarkan hammaning nigohi o'zidaligini fahmlab Sohib akaga qaradi. Negadir uning ko'zlari qizarkan, qovoqlari shishgan avvalgidan boshqacha nigohda edi.

Dovdirab qolgan yigitni ko'rib Sohib qah-qah otib kuldi.

- ey sen, nima motamga kelganmisan?!
- Sohibjon, qo'ysangizchi,...
- uka sen uyingga chiqib ket.. Sohibjon
- nima kerak shunday kunda unaqa gaplar
- jim..jim ,- dedi Sohib aka ovozi balandlatib, so'ng gapida davom etdi
- sen, sening avlod ajdodining o'zlaringcha kitobni quchoqlab, o'qituvchiman deysanla bitta oddiy pedagog bo'lishga arzimaysanu mani qizim,..ona qizim o'qishga kirsam ko'rolmaysanlami

Endigina o'n to'qqizga kirgan yigitning ovozi titrab ketdi

- amaki ko'rolmaganimdam kelganim yo'q, siz avlod ajdodimni emas o'zimni gapiring. Avlod ajdodimga til tekkizsang...
- veyy buni qarangla yur bu yoqqa, .. qo'yvor meni...

Odamlar harchand urinmasin baquvvat qo'llari bilan yigitni yoqasidan olib Sohib tashqariga olib chiqdi. Kimdir yulqib olib Sohibni nari tortdi. Yana kimdir Farruxni yetaklab olib chiqib ketmoqchi edi. Bola dodlab nimadir dedi

- to'xta anavi nima deydi,- jirkanch kulib qo'ydi Sohib aka, bobong menga dars o'tgan bo'lsa, ana pensiyasini olib yotibdi. Senam nari borsa biri ikki bo'lmaydigan domla bo'lasanda keyin qishloqqa qishloq yurasan, bobom qilgan , momom bilgan, dadam aytdi deb...

- iflos , ko'zingga ko'rsataman hali...

- kel, churvaqa ,- Sohib odamlarni yorib yigitni shapotiladi. Yigitni qo'ni qo' shni olib chiqayotgan qayerdandir Feruz paydo bo'ldi-yu hammani dami ichiga ketdi.

Ukasini shappatilagan nomardga bir musht chiroyligina qilib tushirgan Feruz yerda ag'anab yotgan Sohib akaga iljayib

- bu meni ukam bo'ladi, yoshingni hurmati jim ketdim, yo'qsa enangni ko'rsatardim,
- dedida. Ziyofatdan chiqib uyiga ketayotganlaga
- sendaqala puli borni tovonini o'pib yuraverlaring ,-deb ukasini olib ketdi.

Ertasiga mahalla posponi kelib aka - ukalarni olib ketdi. Orada bo'lgan ishlarni

Aliboy muallim eshitdi. Pagoni bor shogirtlari bor ekanmi, yoki o'shandagi odamlar isbot qilib bolani aybsiz deyishdimi har qalay bir kunda muallim qurg'ur yelib yugurib nabiralarini chiqarib oldi. Bu bo'lgan ish anchagacha qishloqda gap bo'ldi. Kimdir Sohib bovvachchani tarafini olar, muallim bo'lib nabiralariga tarbiya berolmagan boboyni ayblardi. Yana kimdir yigitdan gap o'tganini, indamasa shuncha gap bo'lmasligini gapiradi. Lekin ko'cha ko'yda Feruzni soch tolasi ko'rishi bilan hamma jim bo'ladi. Sportchida urgan joyini yorivoradi. Kimga kerak ortiqcha dag'maza?!

Bu tomonlarga kelarkan har qaysi mehmon kirakashlardan bu tomondagi yaxshi oilalar haqida so'rasharkan kirakash og'zi to'lib Sohib boyni maqtaydi

- emishki qizi med mi bir baloda o'qiykan. Xotinimday do'xtir ekanu lekin bitirgach bironi yozib bergan dori ukollariga qarab ish qilmay o'zi yozib o'zi davolarkan.

Dadasichi qishloqni sotib olsa puli yetadi. Faqat sotib olmaydida bir o'zi bitta qishloqda zerikadi. Ey bu odamni ishiyam allambalo deyishadi. Katta pulni berib yuborib bo'lib bo'lib olarmish, ana odamgarchilik. Lekin oxirida pulni sanab ko'rsa avval qarzga bergan pulidan ko'proq chiqarmish. Bu bizni odamlaram yaxshilikni

bilishadi ...

Oradan oylar o'tdi.

Sentabr , oktabr....yer bag'rini xazon faslidan kuyib kul bo'lay deb otash kabi yonayotgan barglar qopladi. Bog'u rog'lar go'zal tilla rangga kirdi. Vaqt sanab o'tirmay har bir onni odamlardan beayov tortib olaverdi.

Qish keldi. Qish qishligini qilib qor ham yog'di. Ba'zan muzlagan yerlardan yurildi, ba'zida loy bosib yurishga to'g'ri keldi. Yerni oppoq qor qoplaganda barglaridan judo bo'lgan daraxtlar yalang'och tanasini shamolga tutib, bahor kelishini intizor kutdi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmadi - yu lekin bu kim uchundir ko'pday edi. Oylar juda tez o'tardi. Farrux shu oy yana ikkita kitobni o'qib tugatsa, ishlari besh bo'lishini ko'zlab shahar ko'chalaridan kvartirasiga qaytardi. Shu paytgacha agar hammasi pul bilan bitsa o'qishga men ham pul bilan kiraman deb chet elga ketishga uringan Farruxni chetga ketishiga uydagilari unamadi. Eng avval bobosi qarshi chiqdi, keyin dadasi va akasi. Bobosining aytishicha maqsadni qat'iy qo'ysa o'qishga kirish hech bir ish emasmish. Feruzning aytishicha Farruxning o'qishga kirishi oilasini sha'ni bo'lib xizmat qilarmish.

Avgust ham yaqinlashib kelardi . Har oy osmonda yangi oyni ko'rganda yoki juma namoziga borganda Farrux o'qishga kirishni ,ota onasini yuzlarini yorug' qilishida ollohdan madad so'rardi.

Hozirgina kvartiraga kimgach abiturent tengdoshlaridan tashqari yana kimdir uyda borligini sezdi. Bu akasi Feruz edi.

- ukam akangni tabrikla,- dedi Feruz dabdurustdan

- tinchlikmi?! Nima gap o'zi,- hayron qolib so'radi

-musobaqaga ketadigan bo'ldik, meni termaga olishdi.

Aka uka quvonib choy ichishdi. Ovqatlanib bo'lgach uzoq duo o'qishdi.

Oradan bir hafta o'tgach Feruz viloyatda dzyudo bo'yicha chempion bo'ldi. Bir oy o'tgach xalqaro musobaqadan ham birinchi o'rin bilan qaytdi.

Tobora avgust yaqinlashib kelardi. Akasining natijalari Farruxni ruhlantirar, yozgi oqshomlar ikki uch soatlik uyqu bilan nihoyalanardi. Bir tarafdin issiq diq havo ikkinchi tomondan issiq havoda ko'payib ketgan pashshalar odamni o'qishdan bezitadigandek bo'ladi. Yo' q o'qish kerak. Farrux uchun oiladagilari berayotgan ishonch uchun ham o'qishi kerak.

Hujjatlar topshirildi. Imtihonlar ham o'tdi.

Qishloqqa qaytarkan Farrux ko'cha boshida ikki qavatli hashamatli uy, darvoza yonida mung'ayib qolgan Sohib akaga ko'zi tushdi. Nechukdir ozg'inlashib, kichrayib qolgan. Oq yuzlari biroz qorayib ko'zlari bir nuqtaga tikilib qolgandi.

-Ancha qaribdimi?! O'shanda bekor so'kindim o'zimdan katta odamni. O'zi nechchiga kirgan u. Kamida yetmishga kirgandek mukkayib qolibdi. Nima bo'ldiykin, - o'z o'ziga gapirib borarkan yo'l ustida uni kutib turgan otasiga ko'zi tushdi. Eski choponini kiyib olgan dadasi u yerdan bu yerga borib kelar, yo'l poylab o'g'lini kutib turgani yaqqol bilinardi. Axir Farrux telefon qilib boraman demagandiku qayerdan bilishdiykin?!

Dadasi bilan ko'risharkan Farrux dadasi bilan ko'rishib uyga kirdi. U dadasi

bilan quchoqlashganda hech qayerdan ololmaydigan g'ayritabiiy kuchni go'yo dadasining bag'ridan olgandek bo'ldi. Hovlida supa, supada bobosi oq soqolini tutamlab Feruz bilan narda o'ynashardi.

- ana aytmavmidim o'g'ling keladi deb ana o'ziyam kelib qoldi, - chol shunday deb nabirasini bag'riga bosdi. Hazil huzul boshlandi. Mushtipar ona farzandini o'pib

- o'qishga kirding dedi

- hali javobi chiqmadiku, hayron qoldi yigit

- ko'nglim sezayapdi bolam, iloyo shunday bo'lsinda

- ko'ngilni keng qil kelin,- hafsala bilan choy ho'playotgan muallim bobo gapga aralashib

- Otam rahmatli -"ma nabiralaringga et" deb bir xalta bug'doy berdilar demak kiradi. Meni aytdi deysan, tushda bug'doy yaxshi narsa

- dada bobom menga biron narsa bermadilami- gapga Farruxning otasi aralashdi.

- Berdila o'g'lim, dedi boboy sekin cho'ntakidan nosqovoqni olib

- mana buni olaykansanda har kuni to'ldirib qo'yarkansan,- oraga kulgu qo'shildi.

Qo'lbola osh damlandi. Oila davrasi to'la to'kis bo'lganiga ne yetsin deb yaqin qarindoshlar ham jam bo'lishdi.

Tun ketidan buyuk quyosh chiqdi. Uning buyukligi tunni kunga aylantirib go'zal sayyoramizni o'z holicha ko'rsatishda bo'lsa ne ajab. Tong har doimgidan boshqacha, har doimgidanda ajoyib bo'lishi mumkinmi? Axir har kuni quyosh sharqdan bir xil tarzda chiqmaydimi? Yo'q balki shundaydir lekin quyoshga qanday qarash bu bizga bog'liq. Borliqqa qanday boqish o'zimizga bog'liq. Undagi go'zallikni qalbingga singdirganing sari, o'zing go'zallikka aylanib boraverasan! Qishloqqa yana mehmon kelardi. Mehmon bu qishloqdagi eng obro'li oila haqida so'rarkan kirakash javob berardi

- bu Alimboy degan domla borla, bir paytla maktabda bizni o'qitgan. O'g'liyam o'qituvchi, o'rischadan dars beradi. Uni o'g'illarichi tilla bolalar. Biri chempionmi pempionmi allanbalo radioda ko'rsatdi.. a labay ha shu nima farqi bor televizorda ko'rsatdi. Ikkinchisi yuristmi ye purist bo'larkan budjetga kiribdi emish. Buni nimaligini bilsangla kerak har qalay shahardansila... a, labay kimni so'raysiz? Ha bumi yo'lni ustida turgan odammi? buni Sohib protsentchik deyishadi.

Nechtasini uyini kuydirdi. Kimni pulini, xotinini, kimni qizini deganday.. kuchi borida eshakday baquvvat edi. Haydalib kelib qolgan joyi shu qishloq. Ming lan'at bunaqa odamlarga. Qizi shaharga o'qishga kirdim deb aytgan ekan, hali kutadi. Pul junatganmish, katta pul aka qizi pulni olib jo'navoribdi qaysidir shaharga. Bitta jo'ram aytdi deng ikki yilda uch bor erga tegibdi. Biz halvosidan yeymizmi deb yursak bu kishi uyoqlarda ...e mayli aka sog' bo'ling bo'пти.

Yonidan o'tib ketgan sariq mashinaga razm solgan Sohib ko'cha boshida turib qizini kutardi. Bugun ellik beshga to'ldi. Qiziga har tug'ilgan kunida nimadir yangi sovg'a olib bermasa ko'ngli to'lmasdi. Shiringina kulib turgan qiziga hammasini muhayyo qildi. Mashina, hovli, shahardan uy... Evaziga qizidan qaytgani shuncha gap so'z bo'ldi.

-Anavi o'tib ketayotgan salom berdimi? Tirrancha galstuk taqib olib shahardan kelyapdimi o'ziyam. He ko'rmaganni ko'rgani qursin. Bu bola yurist bo'larmish...

qizim qaylarda qoldiykan , bugun kelarmikan. Ancha bo'ldi, ancha... shundan beri na yuzini ko'rdi, na o'zini...

Erta sahardan qishloq ahli ikki qavatli uy yonida yig'ilishdi. Keyin esa peshinga yaqin ertalabgacha ko'chada och qolib muzlab qolgan Sohibni ko'mib qaytishdi...

-Nima bo'ldiykan?!

-Qizi buzuq chiqibdi ko'tarolmapdi..

-Nima ekan deysiz?!

-sutxo'rmi ,nechtasini yostig'ini quritdi o'ziyam axiri ketibdi....

- tobutni ko'tarib olgan yigitlar kim edi?!

- ularmi? ular biri chempion, biri bo'lajak yurist...

Navruzxuja Tursunov 14.02.2019-yil

22:29